

N.Shodmonov dramalari misolida adabiy manbalarning dramaga ta'siri ilmiy dalillar asosida yoritib berilgan.

ЛИТЕРАТУРНЫЕ ИСТОЧНИКИ ДРАМ НАФАСА ШОДМОНОВА

Зилола Бозоровна Намозова

Кандидат филологических наук (PhD), доцент

Каришинский государственный университет, Филологический факультет

Кафедра узбекской классической литературы

Кариши, Узбекистан

О СТАТЬЕ

Ключевые слова:	драма, литературный источник, персонаж, принцип, генезис, развитие жанра, историческая драма.	Аннотация:	В данной статье классифицированы литературные источники, послужившие основой для драматургии Нафаса Шодмонова. Подробно изучены и проанализированы источники, влияющие на формирование его драм, а также материалы, которые способствовали созданию персонажей, сюжетной линии и композиционной структуры драматических произведений. Кроме того, проведён глубокий анализ художественного мышления драматурга и влияния литературных источников на специфику его драм. На примере драм Н. Шодмонова научно обосновано воздействие литературных источников на драматургический процесс.
------------------------	---	-------------------	---

Kirish. Har qanday drama ijodkorning hayotiy bilim va tajribalari bilan birga, muallif badiiy tafakkurini shakllantirgan manbalar sintezi ta'sirida vujudga keladi.

Nazariyotchi olim U.Jo'raqulov drama janrining o'rganish prinsiplari haqida shunday yozadi: "Muayyan janr nazariyasi tadqiq etilar ekan, bevosita uning tabiati, spetsifik xususiyatlari, kanonlari haqida so'z yuritishdan oldin ayni jarayonga doir to'rt jihatga e'tibor qaratish lozim. Bular: a) janrning o'rganilishi masalasi; b) janr genezisi, madaniy-tarixiy omillar; v) adabiy jarayon va manbalari tarixi; g) nazariy-poetik xususiyatlar [1,5].

Shu nuqtai nazardan yondashganda, Nafas Shodmonov dramalari tadqiqida drama janrining mustaqillik davridagi taraqqiyoti va unga ta'sir o'tkazgan manbalarni o'rganish muhim ahamiyat kasb etadi.

Dramaturg N.Shodmonov dramalari mavzuviy jihatdan, asosan, tarixiy va ijtimoiy mavzu yo'nalishlarida yaratilgan bo'lib, tarixiy mavzudagi dramalarida tarixiylik, rivoyaviylik va badiiy to'qima yetakchilik qiladi. Ijtimoiy mavzudagi dramalarida esa muallif o'zi ko'rgan va eshitgan

yoki bevosita atrofida bo'lgan voqe'liklar negizida zamondoshlari obrazini shakllantiradi, tasvirlaydi.

Tarixiy mavzudagi dramalarining yaratilish davri, asosan, mustaqillik davriga to'g'ri keladi. Biroq dramalarning qamrab olgan davri o'tmishdagi muayyan vaqtdir. Ularda tasvirlangan personajlar: shoirlar, ijodkorlar, olimlar, sarkardalar, hukmdorlar va xalq afsona va rivoyatidagi tarixiy shaxslardir. Bunday dramalarda tarixiy haqiqatlar turfa xil bo'lsa-da, vatanparvarlik g'oyasi asar kompozitsiyasini harakatlantiradi. Aniqroq aytadigan bo'lsak, ijodkorning har qanday tarixiy dramalari vatanparvarlik tuyg'usi bilan "to'yintiriladi".

Ijtimoiy mavzudagi dramalarini qamrab olgan vaqtiga ko'ra 2 guruhga ajratish mumkin: 1. Mustaqillikkacha bo'lgan davr dramalari; 2. Mustaqillik davri dramalari.

Mustaqillikkacha bo'lgan voqealarni qamrab olgan ijtimoiy mavzudagi dramalar hayotiy voqe'liklar asosida yaratilgan bo'lib, ko'rgan, eshitgan yoki bevosita ishtirok etgan voqealar asosida qurilganini ko'ramiz. Yaratilish vaqtiga ko'ra aksariyati mustaqillik davriga to'g'ri kelsa-da, dramalarda ramzlardan foydalanish yetakchilik qiladi. Buni Sharq mumtoz adabiyotining ta'siri sifatida baholash mumkin.

Nafas Shodmonov dramalarining sujet va kompozitsiyasini shakllantirgan manbalar xalq afsona va rivoyatlaridan tortib mustaqillikkacha bo'lgan adabiyot, ayniqsa, turkiy, arab va fors adabiyotining klassik davrida yaratilgan ilmiy va badiiy asarlardir. Ijodkorning mumtoz asarlarni o'rganishi va ular ustida ilmiy tadqiqotlar olib borishi, bevosita, badiiy tafakkuriga ham ta'sir o'tkazdi. Odatda, drama ijodkorning voqe'likni tasvirlashdagi tajriba va mahorati natijasida yuzaga kelsa-da, Nafas Shodmonov dramalarida ilmiy tafakkur va poetik mahorat birlashib ketganini ko'ramiz. Aynan ana shu jihat ijodkor yaratgan obraz shakllarining xilma-xillashuvi va asar kompozitsiyaning rang-baranglashishiga xizmat qiladi.

Nafas Shodmonov badiiy tafakkuriga ta'sir o'tqazgan manbalarni shartli ravishda quyidagicha guruhlariga ajratish mumkin:

1. Tarixiy manbalar.
 - a. *Diniy manbalar;*
 - b. *Qissa va hikoyatlardan iborat badiiy asarlar;*
 - c. *Folklor namunalari;*
 - d. *Tarixiy asarlar.*

1. Tarixiy manbalar tarixiy dramalarni shakllantirishda ham, zamonaviy mavzulardagi dramalar sujetini shakllantirishda ham keng foydalanilgan. Masalan, "Abu Rayhon Beruniy", "Abu Muin Nasafiy" dramalarida qahramonlar xarakterini yaratishda alloma Beruniy va Nasafiyning ilmiy asarlari va fiqhiy ko'rsatmalari, sharhlari birlamchi manba bo'lgan bo'lsa [2],

“Qobil ila Hobil”, “Nuh Kemasi” kabi dramalarning voqealari Qur’oni Karim, “Qissasi Rabg’uziy”dagi qissalar negizida shakllantirilganini ko‘ramiz.

“O‘lan” dramasida esa xalq og‘zaki ijodi namunasi bo‘lgan “o‘lan” ya’ni “yor-yor” personajlar kayfiyatini, orzu va iztiroblarini ifodalash maqsadida bir necha marotaba keltiriladi. Bunda muallif to‘y qilish ostonasidagi farzandidan judo bo‘lgan ota-ona qismatini mohirlik bilan yoritadi. Drama ijodkorning o‘z atrofidagi farzandidan judo bo‘lgan otalar iztiroblari ta’sirida yaratilgan bo‘lsa-da, asarda aynan voqea emas, balki hissiy ifodalar tasviri yetakchilik qiladi. Ijodkorning ruhiyat tasviriga bag‘ishlangan dramalari u qadar ko‘p emas. Biroq ularda muayyan detal, predmet yoki ramzlar asar g‘oyasini ochishga xizmat qiladi. Mazkur dramada asosiy qahramonlar ruhiyatidagi hazinlikni ochish goh ota, goh ona tilidan aytilgan “o‘lan”ga yuklanadi. Ijodkor xalq og‘zaki ijodi namunasi bo‘lgan “o‘lan”ni aynan keltirmasdan, qahramonlar nutqini yor-yor shakliga solidi. Shu orqali muallif badiiy niyatini ifoda etishda maqsadiga erishadi. Bosh qahramon Hurining onasi tilidan aytilgan:

Xazon kelmay bog‘imda, hay-hay o‘lan yor-yor,

Mezon tori tizildi, hay-hay o‘lan yor-yor.

Bo‘ylariga to‘yolmay, hay-hay o‘lan yor-yor,

Rayhonlarim uzildi, hay-hay o‘lan yor-yor.

“yor-yor” xalq og‘zaki ijod namunasi tubdan farqlanadi. Yor-yor – personaj nutqining shakliy ifodasida mohirona tanlangan ijodkorning yondashuv formasi.

Ba’zi tarixiy dramalarda tarixiy manbalardagi haqiqatlar ifodalansa-da, ijodkor diqqatini voqeaga emas, shaxs xarakteri fonida ko‘z ilg‘amagan siyosiy, ijtimoiy yoki jamiyatning muayyan sohasidagi tarixiy haqiqatlarni ochishga qaratadi. “Oqsaroy” dramasi haqida ham shunday deyish mumkin. dramada Amir Temur obrazini kamtar, biroq mag‘rur va donishmand shoh qiyofasida qayta jonlantiriladi [3]. Amir Temur tilidan Oqsaroy qarshisida mehmonlar va yig‘ilganlarga qarata aytilgan:

Unga hayot baxsh etgan siz, aziz fuqaro!

Ulug‘ xalqning irodasi, matonatining

Ifodasi bizning binolar.

Bugun Oqsaroyda zahmat chekkanlar

Qarshisida ta’zim qilamiz [3,72]

degan so‘zlari shohning xalqqa hurmati ifodasini go‘zal tarzda ko‘rsatadi. Shohning vatani rivoji uchun mehnat qilganlarga ta’zim etishi – vatanga muhabbat tuyg‘usining balandligini ham ko‘rsatadi. Vataparvarlik Nafas Shodmonov dramalaridagi asosiy personajlar nutqi va harakat ijrosida singdiriladi. Ijodkor uslubining muhim jihatlaridan biri ham shudir.

Ma'lumki, tarixiy dramalarning shakllanishida tarixiy manbalar asosiy manba vazifasini bajaradi. Ko'p hollarda, tarixiy shaxslar obrazini yaratishda muallif to'qima voqe'lik yoki muayyan jarayon "yaratadi". Biroq bu badiiy voqe'lik tarixiylik prinsipiga zid bo'lmaydi. Aksincha, muallifning tarixiy manbalar ta'sirida uzoq vaqt yashashi natijasida tarixiy tafakkur chegarasida badiiy in'iko yaratadi. Tarixiy haqiqat va badiiy in'iko dramada o'zaro parallel harakatlanadi.

"Shiroq" afsonasi va tarixiy asarlar asosida yuzaga kelgan shu nomli dramada esa oila va Vatan tushunchalari buyuk Shiroq obrazining harakati va nutqi orqali bir butunlikda tasvirlanadi. Ijodkor vatanga muhabbat tuyg'usini faqatgina so'z orqali emas, balki Shiroq harakatlari va uning sumkasidagi "o'yinchoq" timsoli orqali ifoda etadi [4]. Dramada ijodkor o'z tilidan vatan tuyg'usini quyidagicha ifoda etadi:

Yurt sha'ni deb ado bo'lganlar –

Aslo o'lmaslar,

El sha'ni deb fido bo'lganlar –

Aslo o'lmaslar.

Ular yurtga posbon bo'lib

Yashar abadiy!

Ular elga vijdon bo'lib

Yashar abadiy!

Bir qaraganda, qahramon tilidan aytilgandek ko'ringan ushbu musiqiylikka ega ash'or asar pafosini oshiradi. Bunday qo'shiqlar faqat tarixiy emas, falsafiy dramalarda ham ko'zga tashlanadi. Bu ijodkor uslubidagi o'ziga xos jihatlardan biridir. Dramaturgning bu kabi shoirona ifodalarida ba'zan baxshiyona, ba'zan falsafiy, ba'zida esa achchiq xulosaviy kayfiyat aks etadi.

Tarixiy dramalari ichida alohida o'rin tutuvchi yana bir dramasi "Edip" bo'lib, u Sofokl va Seneka asarlari asosida yaratilgan mazkur dramada muallif o'zining falsafiy qarashlarini ifoda etadi.

2. Mumtoz adabiyot vakillarining asarlari va ular ustidagi tadqiqotlar. Nafas Shodmonov dramalarida hikoyat keltirish (masalan, "Maxzan" dramasida) yoki personaj ruhiy holatini ifodalashda, asar g'oyasini ochishda mumtoz shakl bo'lgan masnaviy usulda aruz vaznida yozilgan muallif qalamiga mansub parchalarni ko'ramiz. Drama matnida mumtoz va zamonaviy poetik shakllarning aralash shaklda kelishi Fuzuliy, Jomiy, Navoiy, Ogahiy, Munis kabi buyuk ijodkorlar asarlarining dramaturg ijodiga ko'rsatgan ta'siri ekani bilan izohlanadi. "Ushshoqiya" dramasi ana shunday ta'sir doiraning asar shaklida ham, g'oyasiga ham yuqori darajada ta'sir o'tkazgan asarlardandir. Bu tipdagi dramalar ko'proq ishqiy-falsafiy yoki axloqiy– falsafiy xarakterda yaratilgan.

Navoiyning “Qaro ko‘zum...” g‘azalining mazmun - mohiyati falsafiy ma‘no tashuvchi “Ushshoqiya” dramasi ga ko‘chadi. Asar boshdan oyoq oshiq obrazining ruhiy holati tasviridan iborat. Oshiq tilidan aytilgan barcha matn aruzning ramal bahrada yozilgan:

*Ey qaro ko‘zum, ko‘ngulning mohi sen,
Dardi ishq ezgan dilim dilxohi sen.
Sen kulib olam aro ochganda yuz,
Qotdi til, bitdi quloq, el barcha ko‘z.
Pardai fitna chekib oraz aro,
El ichinda boshlading ko‘p mojaro.*

Asarda sharpalar tilidan aytilgan nutq drammatizm belgilarini tashiydi. Pafos, ohang, takror... bu kabi dramaning shakliy formalarini ijodkor sharpalar tilidan beradi. Oshiq tilidan aytilgan monolog va diologlar mumtoz she‘r shakli – masnaviyda beriladi.

Asarni muallif “rivoyat” deb ataydi. “Maxzan” dramasi da ham ramzlarning faol qo‘llanishi, dramadagi 4 ta rivoyatdan 3 tasi klassik asarlarda uchrashini ham klassik asarlarning ta‘siri sifatida baholash mumkin. 4-rivoyat ijodkorning o‘zi tomonidan to‘qilgan asar g‘oyasi va kompozitsiyasiga mos ravishda to‘qilgan rivoyat bo‘lib, avvalgi rivoylar kabi ustalik bilan yaratilganki, bundan roviylik xususiyatining ijodkor ta‘biga ta‘sirini anglash mumkin.

2. Zamondoshlarining sujet va portretlari, real voqealar tasviri.

Nafas Shodmonov dramalarida zamondoshlari bilan bog‘liq voqealar tasviri alohida o‘rin tutadi. Jumladan, “Najot Darvozasi” ijodkorning real voqealar asosida yaratgan to‘plami bo‘lib, shu nomli dramada muallif Qashqadaryo viloyatidagi 1986-89-yillarda sodir bo‘lgan voqealar asos qilib olinganini e‘tirof etadi [4,32]. Qolaversa, qahramonlar xarakterini yaratishda ham zamondoshlari timsolidan keng foydalanilgan.

Nafas Shodmonov dramalarida obrazlar xoh tarixiy, xoh badiiy to‘qima bo‘lsin, ularning tasvirida ham, personajlarning o‘zaro munosabatga kirishuvida ham, hattoki asar kompozitsiyasining shakllanishida ham yuqoridagi tasnif doirasidagi adabiy manbalarining ta‘sirini ko‘rishimiz mumkin. Ayniqsa, Sharq mumtoz adabiy va tarixiy manbalarining sintezi va ahamiyati yuqori ekanini e‘tirof etish lozim.

Umuman olganda, Nafas Shodmonov dramalari manbalarining ko‘lamdorligi dramalarining mavzu yo‘nalishlari, kompozitsion yondashuvlarining takrorlanmas tarzda ifodalanishiga olib keldi. Bu esa Mustaqillik davrida drama janri taraqqiyotida muhim burilish yasadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Жўрақулов, Узоқ. Назарий поэтика масалалари: Муаллиф, жанр, хронотоп. – Тошкент, Ғофур Гулом номидаги нашриёт-матбаа ижодий уйи, 2015. – 356 бет.
2. Шодмонов, Нафас. Жавоҳирот. Драмалар. – Тошкент, “Адабиёт”, –2023. 184 бет.

3. Шодмонов, Нафас. Оқсарой. Қарши, “Насаф”, 2019. 76 бет.
4. Шодмонов, Нафас. Нажот дарвозаси. – Тошкент, “Ноширлик ёғдуси, – 2018. 96 бет.